ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

ISSN 2181-922X 55— *61*

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MORFONOLOGIYANI O'QITISH METODIKASI (yozma va og'zaki nutq misollari asosida)

Asatullayeva Dilnavoz[1]

Abstract

Ushbu maqolada umumta'lim tizimida morfonologiyani o'qitish metodikasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Morfonologiya fonologiya va morfologiya o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadigan soha sifatida til o'rganishda muhim rol o'ynaydi, ayniqsa yozma va og'zaki nutqda uning namoyon bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning morfonologik o'zgarishlarni, jumladan, tovush almashinuvi, qo'shimchalarning fonetik o'zgarishi va so'z yasash jarayonlaridagi assimilatsiya hodisalarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari o'rganiladi.

Maqolada yozma va og'zaki mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish orqali morfonologik bilimlarni samarali o'zlashtirish usullari ko'rib chiqiladi. O'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini oshirish uchun diktant mashqlari, morfologik tahlillar, fonetik mashqlar, interfaol bahslar va rolli o'yinlar kabi turli ta'lim usullari taklif etiladi. Shuningdek, innovatsion ta'lim texnologiyalarining, jumladan, raqamli til vositalari, nutqni aniqlash tizimlari va o'yinli o'qitish yondashuvlarining morfonologik idrokni rivojlantirishdagi samaradorligi o'rganiladi.

Bundan tashqari, maqolada umumta'lim maktablarida o'tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalari tahlil qilinib, morfonologiyani o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar beriladi. Ushbu natijalar ta'lim jarayonini optimallashtirish va o'quvchilarning morfonologik kompetensiyasini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Kalit so'zlar: morfonologiya, yozma nutq, og'zaki nutq, fonologik almashinuv, umumta'lim, o'qitish metodikasi, lingvistik kompetensiya, morfonologik tahlil, interfaol ta'lim, ta'lim texnologiyalari.

Har bir davr o'z fani oldiga taraqqiyot ilgari surayotgan muammolar, ijtimoiy ehtiyojlar asosida yangidan-yangi talablarni qo'ya-

[1] *Asatullayeva Dilnavoz* – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-mail: asatullayevadilnavoz@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0005-8800-4122
Iqtibos uchun: *Asatullayeva D.* 2025. "*Umumta'lim maktablarida morfonologiyani o'qitish metodikasi (yozma va og'zaki nutq misollari asosida)".* O'zbekiston. til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik. 2: 55-61.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/XWYJ4314

di. Muammolarning yechimi esa, albatta, yangi muammolarni vujudga keltiradi. Zero, taraqqiyotning mohiyati ham mana shunda.

Morfonologiya fonologiya va morfologiya oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni oʻrganib, tilning tarkibiy tuzilishini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu boisdan, umumta'lim maktablarida morfonologik bilimlarni toʻgʻri oʻqitish nafaqat til tushunchalarini shakllantirish, balki oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi [Абдуазизов 1992;45].

Ma'lumki, fonema variantlari soʻz va morfemalar tarkibida uni tashkil etuvchi sifatida ishtirok etar ekan, u boshqa tovushlar bilan kombinatsiyalar hosil qilish jarayonida turli oʻzgarishlarga uchraydi. Soʻz va morfemalar tarkibidagi har qanday almashinuvlar, avvalo, fonetik xarakterdadir. Bu esa bugungi kunda til strukturasining fonetik, leksik va morfemik sathlari mavjudligi haqida fikr yuritishga olib keladi [Bahriddinova 2008;32]. Sodda tilda aytadigan boʻlsak, morfonologiya – ma'lum bir tilning fonologik xususiyatlaridan toʻliq olinmagan morfemalarning tuzilishi, fonemik tarkibi va oʻzgarish qonuniyatlarini, shuningdek, tilga xos boʻlgan morfologik tabiat hodisalari yigʻindisini oʻrganadigan boʻlim sanaladi [Abduazizov 2000;32].

Morfonologiya sohasi, shubhasiz, birinchidan, turli sinflarga mansub morfemalarning tuzilishini oʻrganishni, ikkinchidan esa, tilda mavjud boʻlgan morfologik almashinish tizimini tavsiflashni oʻzichiga oladi. Biroq bu sohalarning birinchisida haqiqatdan ham muhim ilmiy natijalarga erishish mumkinmi, bu hali aniq emas. Morfologik tuzilish qoidalariga oid deyarli barcha koʻp yoki kamroq umumiy gaplar deyarli muqarrar ravishda ahamiyatsiz (masalan, tez-tez uchraydigan) boʻlib chiqadi. Janubi-Sharqiy Osiyo va Afrikaning bir qator izolyatsiyalovchi tillarida morfema har doim boʻgʻinga teng hisoblanadi.

Morfonologiyaga keng ma'noda qaralganda, u:

1) soʻz va morfemalarning fonologik tarkibi hamda oʻzak va affiksal morfemalarning oʻzaro farqlanishini nazarda tutadi;

2) soʻz yasash va soʻz shakllarini yasash jarayonida morfemalar va ularning bir-biriga ulanishida boʻladigan turli oʻzgarishlarni e'tiborga oladi;

3) morfemalar oraligʻidagi va chegaraga ajratishdagi turli xususiyatlarni morfonologiyada oʻrganadi.

Tilshunoslikning muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlgan morfonologiya morfologiya va fonologiya chegarasida joylashgan boʻlib, soʻz shakllanishi va grammatik oʻzgarishlar jarayonida tovushlarning oʻzgarish qonuniyatlarini oʻrganadi. Morfonologiya ayniqsa qoʻshimchalar qoʻshilishi, soʻz yasalishi va fleksiya jarayonlarida yuzaga keladigan tovush almashinuvlarini tahlil qilish bilan shugʻullanadi. Torroq tushunchaga koʻra, morfonologiya obyekti sifatida bir morfema morflari tarkibida fonemalarning oʻzgarishi, ya'ni ularning almashinishi deb qaraladi.

Oʻzbek tilida agglyutinatsiya jarayonidagi quyidagi morfonologik holatlar e'tiborlidir:

o-a: ong-angla, ot-ata, son-sana;

a-o: tara-taroq, soʻra-soʻroq;

i-u: sovi-sovuq; quri-quruq;
q-g': qiliq-qilig'i, qiziq-qizig'i;
k-g: tilak-tilagi, yurak-yuragi;
n-z: bizni-bizzi, sizni-sizzi;
n-t: otni-otti, toshni-toshti;
n-r: qorni-qorri, shaharni-shaharri;
n-p: gapni-gappi, qopni-qoppi [Nurmonov 2002;152].

Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Adabiy tildan tashqari shevalarda ham ushbu hodisaga misollar ko'p uchraydi.

Sheva vakillari nutqida ishlatilayotgan leksik birliklarning asosiy qismi deyarli barcha turkiy xalqlarning yozma adabiyotlarida ham uchratishimiz mumkin. N.A.Baskakov o'zining "Turkiy tillarni o'rganishga kirish" asarida "Turkiy tillar asosiy leksik fondining xarakteri xususiyati uning barcha turkiy tillar uchun umumiyligidir"[Баскаков 1969;118], - deb yozadi. Ushbu fikrni Sh.Shoabdurahmonov ham "O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansubligi sababli o'zbek tiliga va uning shevalariga mansub bo'lgan ko'pgina so'zlar (tub o'zbek so'zlari) boshqa turkiy tillar sostavidagi ko'p so'zlar bilan etimologik birlikka ega"[Шоабдураҳмонов 1961;207].

Haqiqatdan ham o'zbek tilida qo'llanib kelinadigan *bāš (bosh), jurāk (yurak), men (men), qārä (qora)* so'zlari nafaqat o'zbek balki, tatar, ozarbayjon, turk, boshqird, qoraqalpoq va boshqa ko'plab qardosh xalqlar tillari bilan qiyoslaganimizda faqatgina fonetik o'zgarish bilan boshqa tillarda ham keng qo'llanilishini ko'ra olamiz [Abduazizov 2000;32].

O'zbek tili tarixiga oid yodnomalarda uchrab turuvchi so'zlarning barchasi Buxoro o'g'uz shevasida qo'llanuvchi ayni shunday so'zlar bilan qiyoslab o'rganganda, butunlay boshqa bir ma'no kasb etgan leksik birliklar diqqatni jalb qiladi. Morfonologik hodisalar o'quvchilar tilida ham uchraydi. Bilamizki, turli viloyatlarda o'quvchilar maktabda o'z shevasida gapirishadi, adabiy tilda emas.

Tulki bilän turnä dös bölišipti. Kunlädän bir kuni tulki turnäni me:mānä *čāqiripti*. Turnä *äjtilän* jerä me:mändārčilijä bāripti. Tulki uni *āllijä* tävox qājipti. Kejin *āš* bösin egāči, *özim* ettim bu bötqäni dejan. Turnä tumšuji bilän tävoxi urän, uran lekin *āvqät* yep bilmäjän. Tulki esä jälij jälij bötqäni yep qöjän. Kejin tulki uŋä *äjtän*: "*äynä* bujurmisän turnäžān, säni bāšqä *āvqät* bilän me:mān etip bilmäjmän depti.

Turnä *šunisijäjäm* rähmät dejän. Että *özin̨* bār dep *äjtip* ketän. Kijingi kuni tulki turnänikijä me:mändārčilijä bārändä, turnä uni jānijä jäxnä pijävä qöjipti, u *āgzi* tār közajä sālingän ekän. Kejin tulkijä qäräp: "*āš* bösin tulkižān, ujālmäj jijäver depti. Tulki uni iskäp jälap körän birāq *āgzi āvqätä* jetmäjän. Bāši közāčäjä sigmäjän ekän, turnä esä turnä uzun tumšuğini közāčajä sālip, hämmäsini jebqājän. Tulkijä *özidäj* qilip *žävāp* beripti. Tulki ujäsijä *āč* qäjtän. Xulläs sälämä järäšä *älik* bölän. *Šu-šu* turnä bilän tulkilä döst tutinmäsäkän.

Ushbu ertak Tomdi tuman Ixtisoslashgan maktab-internati 5-sinf o'quvchisi Sirojiddinova Mushtariy tilidan yozib olingan. Ko'rishimiz mumkinki, matn ichida ko'pgina fonetik o'zgarishlar mavjud. *Me:mändārčilijä* so'zida –ga qo'shimchasi –jä ga o'zgargan. Va buyerda biz affiksda yuz bergsn o'zgarishga guvoh bo'lishimiz mumkin. Āllijä so'zida ham xuddi shunaqa affiksda yuz bergan o'zgarish ko'zga tashlanadi. *Tumšuji* so'zida ham,

-γi qoʻshimchasi oʻrnida –ji qoʻllanganinin koʻramiz. Äjtip soʻzida ham soʻzga affiks qoʻshilganda *b* harfi oʻzining jarangsiz *p* juftiga oʻzgarganini koʻramiz. *Turnänikijä* soʻzida ham aynan joʻnalish kelishigi tarzining batamom oʻzgargan shaklini koʻrishimiz mumkin. *Me:māndārčilijä* soʻzida ham affiksdagi oʻzgarishni tezda payqab olishimiz mumkin. Keltirilgan misollardagi barcha soʻzlarda aynan joʻnalish kelishigining oʻzgargan holatini koʻrishimiz mumkin.

KeyingikeltiriladiganmisolimizhamZarafshonshahar12-maktab 5-sinf oʻquvchisi Mahmudova Madina tomonidan yozib olingan va bu ertakda biz koʻpgina morfonologik oʻzgarishlarni uchratamiz: *Bār ekän, jāx ekän,* žudäjäm *mäxtänčox qujon bölän ekän. U dāim* örmändäji *bāšqä qujānläri* ***töpläp*** *yälgon gäpirärkän. "Meniŋ möjlāvim möjlāvdäj, qulāgim häqiqi qulāqdäj, tišim häm. Man hičkimnän qörxmimän derkän. Bir kuni qujānlär qärγä xāläni* ***körip*** *qālišipti vä uŋä mäxtänĉox qujān häqidä* ***ajtip*** *berišipti. Qärgä mäxtänčāx qujāni* ***qidirip*** *ketän. Uni bir butäni* āstidän ***tāpip*** ālip *dejän: qäni mängäjäm bir gäpirip berči, qändin mäxtänčāxligiŋni, depti. Qujān ungäjäm* öšä *gäplärini dejän. Qärga uŋä köp mäxtänmä deb näsihät etipti.* Šundin *dep qärgä qäjtämän dijänidä uŋä itlä* ***täšlänip*** *qālipti.* Šundä *itlä qujānni* ***körip*** *qärgäni* ***qöjip juboriptitä****, qujānni* ärqäsidän *jugurišipti. Qujān häm qāčän, qāčän, itläräm* ārqäsidän *quvän, quvän,* āxiri *itlä quvišdän tõxtäpti. Qujān esä* āmān *qālipti. Qärga bir kuni qujānni körip* änä *sän enni mäxtänčāx qujonmäs, bātir qujānsän depti, va uzr söräpti.* Šučun *hāzirgāčäm qujān bilän qärgä döst ekän.*

Bu oʻquvchining kelib chiqishi Buxoro viloyati Olot tumaniga borib taqalgani sababli uning soʻzlashida sheva unsurlarini koʻplab uchratamiz. Qora bilan belgilangan soʻzlarga e'tibor bersak, barchasida morfonologik oʻzgarishlar roʻy bergan. Masalan, örmändäji soʻziga e'tibor bersak, -gi qoʻshimchasining –ji ga oʻzgargan shaklini koʻrishimiz mumkin. Yoki *töpläp* soʻzida ham –b undoshi oʻzining jarangsiz jufti bilan oʻrin almashganini koʻrishimiz mumkin. *Körip* soʻzida ham xuddi shunaqa morfonologik oʻzgarishga guvoh boʻlamiz. *Ajtip, qidirip, tāpip, täšlänip, körip, qöjip* soʻzlarida ham affikslarda yuz bergan oʻzgarishlarni uchratishimiz mumkin. *Juboriptitä* soʻzida ham biz affiksdagi oʻzgarishga guvoh boʻlamiz. –da qoʻshimchasi oʻrnida –ta ni koʻramiz, bu yerda ham moslashish hodisasini koʻrishimiz mumkin, ya'ni jarangli undosh oʻzining jarangsiz juftiga oʻzgaradi. Morfonologik hodisa deganda biz aynan tovush oʻzgarishlarini tushunib qaraymiz. Yuqorida koʻrib oʻtgan koʻp misollarimiz ham bunga yaqqol misol boʻla oladi.

Oʻquvchilarga ushbu mavzuni oʻrgatishda biz albattta birinchi oʻrindashevamisollarigatayanamiz.Bundaularningoʻzlashtirishiham yaxshi boʻladi, chunki har bir bola oʻz shevasini adabiy tilga qaraganda yaxshi tushinadi. Shevalardagi misollar bilan buni ochib beradigan boʻlsak, mavzuni tushinishi ancha yengil boʻladi. Hozir keltiriladigan misolda ham biz morfonologik oʻzgarishlarni uchratishimiz mumkin:

Iki žörä *bāčäliktän birä kättä bölänlä. Dävr kelip ikkäläsijäm* öz *bäxtini izläp jölä* čiqan*.* Āllidän *ikki jöl učräjän. Biri bāšqa tämängä, biri bāšqa* ***tāmānä*** *jöl* ālän*. Ulärdän biri* šähärmäšähär *jurän, ilm-hunär orttirän, ikkinčisi bārän jerinä pādšāh säjläš učun učirilän semurγ quš täsādifän uniŋ bāšijä qönän.*

Ko'rinib turibdiki, Āllidän so'ziga to'xtalsak, old so'ziga egalik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida ushbu so'z talaffuzi shevada o'zgaradi. Yoki bundan tashqari *tāmānä* so'ziga e'tibor qaratsak ham aynan shu o'zgarishni ko'rishimiz mumkin.

Mögul šāhi Čingizxānni ***näviräsi*** *Xulaku Bāgdoddi qölä* ālip, šähärri *bāšdän* ājāq *täläjdi. Bu urušdä 400 miŋ kišini* öldirtirädi. *Bir nečä* äsrlik *mäšžidlär, särājlär, kutupxānälär Xulaku nävkärläri tämānidän jäksān qilinän.* Šähär *täšqärisijä qärārgāh qurib* ötirän *hukmdār bu jeriŋ eŋ kättä* ālimi *bilän körišmāqči bölän.*

Matndagi *näviräsi* so'zi aslida nabira tarzida aytiladi, lekin unga egalik qo'shimchasi qo'shilganida ushbu so'zdagi b harfi v tarziga o'zgaradi. Bunda 2 tovush o'zaro bir-biriga moslashadi. Ko'rinib turibdiki, bu tarzda o'quvchiga biz mavzuni yanada chuqurroq o'rgata olamiz.

Morfonologiya ko'rib turganimizdek, aksari fonetik o'zgarishlarni: 1. Tovush tushishi 2. Tovush almashinishi 3. Tovush ortishi kabi turlarini o'z ichiga oluvchi bo'lim hisoblanadi. Hozirgacha ushbu bo'lim to'liq o'rganilmaganligi, olimlar tomonidan yetarlicha talqin qilinmaganligi sababli ham ushbu sohaga oid ko'pgina savollar javobsiz qolib kelmoqda. Rus va ingliz olimlarining turli xildagi ilmiy ishlari tarkibidan biz ushbu mavzuni yanayam ochib o'rganib kelmoqdamiz. Bora- bora ushbu mavzuga oid ishlar ko'payib, ushbu soha keng ko'lamda o'rganilib, barcha mavhum savollarga javob topiladi degan umiddamiz

Adabiyotlar

Шоабдураҳмонов Ш. (1961). Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан.

Абдуазизов А.А. (1992). Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи.

Bruce Hayes (2009) "Morphophonemic Analysis" Introductory Phonology

Қ. Леви-Строс. Структурная антропология. – М., 1985.

В. К. Журавлёв. Фонология фундаментальная и прикладиая. Проблеми фонетики ифонологии. Материалм Всесоюзного совешания. – М., 1986.

Mirzayev M.M. (1969). "O'zbek tilining Buxoro gruppa shevalari". – Toshkent, Fan.

Fazliddin Galiyevich Sharipov "O'zbek tilshunosligida morfonologiyaga doir talqinlari" maqolasi.

Лосев А. Ф. В поисках иостроепия обшего яамкозпашш как диалетической системм. Теория и методолопш измкозшшпи.

Леонтьев А. А. (1975). Возникновение понятия фонемн (обзор отечественной и зарубежной литературн). Проблемн фонологии и морфонологии. Обзорн. – М.

Баскаков Н.А. Введение в изучение тюрских языков. – М.: Высшая школа, 1969. – С. 118.

https://uz.wikipedia.org/wiki/Morfonologiya

https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/morfonologiya/

METHODOLOGY OF TEACHING MORPHONOLOGY IN GENERAL EDUCATION (Based on Written and Oral Speech Examples)”

Asatullayeva Dilnavoz [1]

Abstract

This article examines the methodology of teaching morphonology in the general education system, emphasizing both theoretical and practical aspects. Morphonology, as an intersection of phonology and morphology, plays a crucial role in language acquisition, particularly in written and oral communication. The research explores the challenges students face in understanding morphonological transformations, such as sound alternations, affix variations, and phonetic assimilation in word formation.

The study highlights the importance of integrating written and oral exercises to enhance students’ comprehension and application of morphonological rules. Various teaching techniques, including dictation exercises, morphological analysis, phonetic drills, interactive discussions, and role-playing activities, are proposed to strengthen students’ linguistic competence. The research also investigates the effectiveness of innovative educational technologies, such as digital language tools, speech recognition systems, and gamified learning approaches, in improving morphonological awareness.

Furthermore, the article presents findings from experimental research conducted in general education schools, demonstrating the impact of structured morphonological instruction on students’ language proficiency. Based on these results, methodological recommendations are provided to optimize the teaching process and ensure effective morphonological competence development among learners.

Key words: morphonology, written speech, oral speech, phonological alternations, general education, teaching methodology, linguistic competence, morphonological analysis, interactive learning, educational technology.

References

Шоабдураҳмонов Ш. (1961). Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан.

Абдуазизов А.А. (1992). Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи.

Bruce Hayes (2009) “Morphophonemic Analysis” Introductory Phonology

[1]*Asatullayeva Dilnavoz* – PhD student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.
E-mail: asatullayevadilnavoz@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0005-8800-4122
For citation: Asatullaeva *D.* 2025. "*Methodology of Teaching Morphonology in General Education (Based on Written and Oral Speech Examples)”.* Uzbekistan. Language and Culture. Folklore. Dialectology. 2: 55-61.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/XWYJ4314

Қ. Леви-Строс. Структурная антропология. – М., 1985.

В. К. Журавлёв. Фонология фундаментальная и прикладиая. Проблеми фонетики ифонологии. Материалм Всесоюзного совешания. – М., 1986.

Mirzayev M.M. (1969). O'zbek tilining Buxoro gruppa shevalari. – Toshkent, Fan.

Fazliddin Galiyevich Sharipov. O'zbek tilshunosligida morfonologiyaga doir talqinlari maqolasi.

Лосев А. Ф. В поисках иостроепия обшего яамкозпашш как диалетической системм. Теория и методолопш измкозшшпи.

Леонтьев А. А. (1975). Возникновение понятия фонемн (обзор отечественной и зарубежной литературн). Проблемн фонологии и морфонологии. Обзорн. – М.

Баскаков Н.А. Введение в изучение тюрских языков. – М.: Высшая школа, 1969. – С. 118.

https://uz.wikipedia.org/wiki/Morfonologiya

https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/morfonologiya/

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com